



# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2024





# **МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**3/1-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

**3/1-сан 2024**

*март*

---

*Шөлкемлестіріушілер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

|                                             |                                    |
|---------------------------------------------|------------------------------------|
| Мақсет АЙЫМБЕТОВ                            | Хушбоқ НОРБҰТАЕВ                   |
| Нағмет АЙЫМБЕТОВ                            | Улфат МАҲҚАМОВ                     |
| Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ                          | Уролбой МИРСАНОВ                   |
| Сапардурды АБАЕВ                            | Сафо МАТЧОН                        |
| Адхамжон АБДУРАШИТОВ                        | Шукурилло МАРДОНОВ                 |
| Хайрулла АЛЯМИНОВ                           | Камаладин МАТЯКУБОВ                |
| Байрамбай ОТЕМУРАТОВ                        | Арзы ПАЗЫЛОВ                       |
| Алишер АЛЛАМУРАТОВ                          | Барлықбай ПРЕНОВ                   |
| Дилшодхўжа АЙТБАЕВ                          | Раъно ОРИПОВА                      |
| Интизар АБДИРИМОВА                          | Бахтиёр РАХИМОВ                    |
| Тўлқин АЛЛАЁРОВ                             | Фуркат РАЖАБОВ                     |
| Марифжон АХМЕДОВ                            | Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия) |
| Умида БАҲАДИРОВА                            | Дилшода САПАРБАЕВА                 |
| Фархад БАБАШЕВ                              | Феруза САПАЕВА                     |
| Ботир БОЙМЕТОВ                              | Зайниддин САНАҚУЛОВ                |
| Гулзода БОЙМУРОДОВА                         | Қаххор ТУРСУНОВ                    |
| Шахло БОТИРОВА                              | Амина ТЕМИРБЕКОВА                  |
| Маманазар ДЖУМАЕВ                           | Нурзода ТОШЕВА                     |
| Асқар ДЖУМАШЕВ                              | Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ                 |
| Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент,<br>Қазақстан)    | Тажибай УТЕБАЕВ                    |
| Алишер ЖУМАНОВ                              | Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ             |
| Гүлнара ЖУМАШЕВА                            | Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ          |
| Холбой ИБРАГИМОВ                            | Амангелди КАМАЛОВ                  |
| Шохида ИСТАМОВА                             | Воҳид КАРАЕВ                       |
| Умида ИБРАГИМОВА                            | Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА                 |
| Лола ИСРОИЛОВА                              | Ризамат ШОДИЕВ                     |
| Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,<br>Қазақстан)      | Зафар ЧОРШАНБИЕВ                   |
| Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент,<br>Қазақстан) | Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ                  |
| Меруерт ПАЗЫЛОВА                            | Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ              |
| Асқарбай НИЯЗОВ                             | Тармиза ХУРВАЛИЕВА                 |
| Сабит НУРЖАНОВ                              | Умид ХОДЖАМҚУЛОВ                   |
| Захия НАРИМБЕТОВА                           | Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ            |
|                                             | Гулрухсор ЭРҒАШЕВА                 |
|                                             | Гавхар ЭШЧАНОВА                    |
|                                             | Қонысбай ЮСУПОВ                    |

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

|                                                                                                                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Тилеумуратова Г.Т.</b> Қорақалпоқ адабиётин ўқитишда халқ оғзаки ижодидадан фойдаланиш усуллари .....                                                                                                 | 9  |
| <b>Aytbayev D.T.</b> Ergash gapli qo'shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi .....                                                                                                                | 13 |
| <b>Mamarizayeva F.Z.</b> Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o'ziga xosligi (S.Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida) .....                                 | 17 |
| <b>Qurbonova D.A.</b> Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati .....                                                                                                                                | 22 |
| <b>Odiljonova K.A.</b> Leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mavjud ahvoli ..... | 27 |
| <b>Sultonkulov O.J.</b> Zamonaviy tilshunoslikda "Vaqt" konseptini pragmatik jihatdan o'rganish masalalari .....                                                                                         | 34 |
| <b>Еркибаева Г.Г., Турсуналиева Г.Б., Абдикаримов А.</b> Фразеологические словари и фразеологическая компетенция .....                                                                                   | 39 |
| <b>Otabayev M. N.</b> The role of games in teaching English .....                                                                                                                                        | 45 |
| <b>Majidova G.</b> Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages .....                                                                                      | 49 |

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Turumbetova A.</b> Oqiw sabaqlaridan tisqari dogerek jumislarin otkeriw metodikasi .....                                                                        | 54  |
| <b>Temirbekova A.O., Saribaeva B.</b> Jahn talim sistemasinda - talim .....                                                                                        | 63  |
| <b>Тулишов Ғ.</b> Талабаларда креативлики баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари .....                                                                                 | 67  |
| <b>Ismadiyarova U.A.</b> Ma'naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish .....                                        | 73  |
| <b>Юсупов С. С.</b> Таълим-тарбия тизимини бошқарувида раҳбарлик ва ташкилотчилик фаолиятининг педагогик асослари .....                                            | 80  |
| <b>Абдурахимов Қ.А.</b> Тафаккур жараёнига айтиб туришларнинг таъсири ва роли .....                                                                                | 89  |
| <b>Рўзиматов Э.Й., Рўзиматов Э.Э.</b> Замонавий ўқитувчи-кегажак бунёдкори .....                                                                                   | 99  |
| <b>Turdiqulova N.T.</b> Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning samaradorligi .....                                  | 103 |
| <b>Хамрокулова Ш.Э.</b> Даволаш педагогикасининг фан сифатида ривожланиши .....                                                                                    | 113 |
| <b>Содиқов У., Жўраев А.</b> Масалаларни ечишда ўқувчиларда математик моделлаштириш кўникмаларини шакллантириш .....                                               | 120 |
| <b>Абдуллаева Г.А.</b> Маънавий тарбияни миқдорий хусусиятлари .....                                                                                               | 125 |
| <b>Хайдарова Х.Р.</b> Ёшлардаги ахборот-виртуал саводхонлики ривожлантиришда рақамли медианинг роли .....                                                          | 130 |
| <b>Хамрокулова Ш.Э.</b> Экологик тарбия механизмларини такомиллаштиришнинг методологик асослари .....                                                              | 135 |
| <b>Худайназаров Т.А.</b> Талабалар ўқув фаолияти самарадорлигини таъминлашда рағбат ва жазо феноменларининг роли .....                                             | 141 |
| <b>Ахрарова З.Б.</b> Маънавий - ахлоқий тарбия жараёнларида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижтимоий – педагогик меросидан фойдаланиш .....                                | 148 |
| <b>Jumabaev A.D.</b> Axloqiy ta'limga qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                 | 154 |
| <b>Xushbaqov D. Q., Sodiqov U. J.</b> Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....                                        | 163 |
| <b>Sultansaidova M.A.</b> Xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish .....                                        | 170 |
| <b>Абдурахимова Д.А.</b> Интегратив ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг ахлоқий-руҳий, жанговар компетентлигини ривожлантиришда маънавий маданиятнинг роли ..... | 175 |
| <b>Mirzayev Sh.T.</b> Harbiy ta'lim fakultetlari talabalarining innovatsion fikrlashlarini rivojlantirish omillari .....                                           | 182 |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Орлова Т.А.</b> Иммерсивные технологии - как средство развивающего аспекта в обучении астрономии студентов педагогических вузов .....             | 329 |
| <b>Mamatoxunov Yo.A.</b> Integration of modern technologies into the educational process: analysing the impact on learning outcomes in physics ..... | 336 |

### БАСЛАЎШИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

|                                                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ixlasov I.</b> Baslawish klasslarda lingvistikaliq kompetensiyağa tiykarlangan qatnaslardi qalıplestirivde kompetensiyanıń mazmun hám mánisi .....                             | 342 |
| <b>Xurvalieva T.L.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishning kelib chiqish sabablari va uning yechimlari .....                                                  | 346 |
| <b>Narimbayeva L.K.</b> Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish .....                                                                                                | 350 |
| <b>Shanasirova Z.Y.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahorat ko'nikmalarini rivojlantirish .....                       | 355 |
| <b>Nosirova R. X.</b> Steam ta'lim texnologiyalari, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida .....                                                 | 359 |
| <b>Abdullayev A.A.</b> Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash xususiyatlari .....                                            | 363 |
| <b>O'razaliyeva S. T.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va kasbiy talablar .....                                                  | 366 |
| <b>Davletmuratova E., Orazbaeva G.</b> O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tuygusini tarbiyalashda xalq pedagogikasining ahamiyati .....                                            | 370 |
| <b>Azamatova D. Sh.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining turlari .....                                                                                      | 374 |
| <b>Maripova N.X.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o'yinlarning ta'siri .....                                                                                  | 378 |
| <b>Xidoyatova N.A.</b> Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirish .....                                       | 381 |
| <b>Achilova M. S.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslari .....                                                      | 386 |
| <b>Mutalova D. A.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish .....                                                       | 391 |
| <b>Kasimova N. D., Tojiddinova Z.</b> O'smir - o'quvchilarni kompyuter o'yinlari vositasi yordamida ta'lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlar .....                 | 395 |
| <b>Tursunboyeva M. D.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida ma'naviy sifatlarini tarbiyalash .....                                                                      | 402 |
| <b>Abduraximov D.D.</b> Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash .....                                                            | 406 |
| <b>G'anixo'jayev A.Sh.</b> Aqliy va jismoniy salomatlikning bog'liqligi .....                                                                                                     | 410 |
| <b>Muratova M.O.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati .....                                 | 413 |
| <b>Babyeva D.R., Ochilova X.Sh.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvning zaruriyati .....                                                                      | 418 |
| <b>Ergasheva B.Z.</b> Modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolari ..... | 423 |
| <b>Eshmamatova S.T.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish .....                                | 426 |
| <b>Buriyeva A.N.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'limiy o'yinlarning didaktik ta'minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar .....     | 429 |
| <b>Ilyosboyev S.B.</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo'llari .....                                                   | 434 |
| <b>Aybotayeva M.X.</b> Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlarni tashkil etish yo'llari .....                                                                               | 438 |
| <b>Eshboyeva D.D.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish .....                                | 442 |
| <b>Adilbaeva G.Y.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya .....                                                                                                   | 446 |
| <b>Adilbaeva G.Y.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllari .....                                                                      | 452 |



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Shanasirova Z. Yu.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi  
kafedrası dotsenti*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'quvchi, metod, pedagog, ko'nikma.

**Ключевые слова:** общее среднее образование, ученик, метод, педагог, навыки.

**Key words:** general secondary education, student, method, educator, skill.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir.

Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o'qituvchida talabalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo'lishi zarurdir.



Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- O'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning International scientific-practical conference on the topic of «Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages» fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.



Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

O'quv jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish O'qituvchilarga:

- internet tarmog'i yordamida u yoki bu o'quv fanlardan to'plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;
- bir vaqtning o'zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o'qitish uslublarini amalga oshirish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish;
- O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazish;
- qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalarga yakka tartibda ishlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;
- bolalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

O'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalarda:

- O'z xohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash;
- tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;
- oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish;
- turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish;
- O'rganilayotgan obyektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish;
- kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to'siqlardan holi bo'lishga (kulgu bo'lmaslik, jur'at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;



- tayyorgarlik darajalari yetarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin:

- fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
- tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);
- O'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
- mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
- amaliy malaka samaradorligini oshirish.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, o'z fanini innovatsion yondoshuv asosida o'qitishni, interaktiv usul va vositalardan unumli foydalanishi, fanning muhim muommolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo axborot texnologiyalari malakalarini egallashi zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. «O'zbekiston» NMIU, 2017. - 485 bet.
2. Usmonov M. T. Information Security Policy. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 70-73.
3. Usmonov M. T. Information War. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 79-82.
4. Usmonov M. T. International and National Legal Base in the Field Of Information Security. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 7-14.
5. Usmonov M. T. Legal Legislative Basis for Detection of Information Crime. International Journal of Academic Engineering Research (IAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January -2021, Pages: 80-87.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda metodik g'oyalar yoritilgan. Shuningdek, pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish bayon etilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье освещаются методические идеи по совершенствованию управленческого процесса общеобразовательных школ. Также изложена эффективная организация педагогических образовательных процессов на основе современных информационных технологий.

#### SUMMARY

The article covers methodological ideas in improving the management process of general secondary schools. It is also stated that the effective organization of pedagogical educational processes on the basis of modern information technology.